EKOLOGIYA VA IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYANING O‘RNI.

Ochilova G.F., Ochilova Y., Abduahatova M.,
NDU talabasi e.mail:ochilovagavharbonu91@gmail.com
Tel:+998934340116

Annotasiya: Ushbu maqolada ekologiya va iqtisodni barqaror tenglikda rivojlantirishda buyuk taraqqiyotga erishish uchun huquqiy tarbiyaning o‘rni tahlil etiladi. Maqolada huquqiy tarbiyaning atrof - muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli shuningdek xalqaro tajribalar va milliy qonunchilik asosida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan mexanizmlar yoritilib Konstitutsiyaning ekologiya va iqtisodga oid moddalaridan namunalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, iqtisod, huquqiy tarbiya, "yashil makon" Konstitutsiya, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В статье анализируется роль юридического образования в достижении значительного прогресса в развитии экологии и экономики на устойчивой и справедливой основе. В статье освещается роль правового образования в охране окружающей среды и обеспечении экономической стабильности, а также механизмы, которые могут быть реализованы на основе международного опыта и национального законодательства, приводятся примеры из статей Конституции, связанных с экологией и экономикой.

Ключевые слова: Экология, экономика, правовое образование, «зеленая зона», Конституция, устойчивое развитие.

Abstract: This article analyzes the role of legal education in achieving great progress in the sustainable development of ecology and economy. The article highlights the role of legal education in environmental protection and ensuring economic stability, as well as mechanisms that can be implemented based on international experience and national legislation, and also provides examples of articles of the Constitution related to ecology and economy.

Keywords: Ecology, economy, legal education, "green space" Constitution, sustainable development.

Ekologiya va iqtisodni tenglikda barqarorlashtirish bugungi kunda global miqyosda muhim masalalardan biridir. Ushbu jarayonda huquqiy tarbiya ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki barcha ekologik muammolar va iqtisodiy inqirozlarning

aksariyati insonlarning huquqi ong va madaniyati darajasiga bog‘liq. Zero, Farididdin Attor ham: " Ilm agar oz bo‘lsa, ham hech etma xor, O‘z ilmning ham buyuk qimmati bor" - deya bejiz aytmagan.

Mamlakatdagi ekologik barqarorlik atrof - muhitni muhofaza qilish, asrab - avaylash va tabiiy resurslardan foydalanish oqilona foydalanishni talab qilsa, iqtisodiy barqarorlik esa iqtisodiy o‘sish bilan birga ijtimoiy farovonlikni oshirishni ham nazarda tutadi. Huquqiy tarbiya fuqarolarning ekologik va iqtisodiy sohalardagi huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglashlariga yordam beradi, ayniqsa yoshlarga bilim berish va ularning ongida ekologik tafakkur va ma’suliyat hissining shakllantirishda muhum o‘rin tutadi. Shu boisdan ekologiya va iqtisodni barqaror rivojlanishda huquqiy tarbiyaning o‘rni va ahamiyatini o‘rganishda dolzarb muammolardan biridir.

Hozirgi globallashgan dunyoda ekologiyaning o‘zgarishi natijasida iqtisodiyot sur’atlarining ham pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa O‘zbekistonning iqtisodiyotini eng ko‘p ekologik ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishishni kafolatlaydigan yo‘nalishlarda amalga oshirish zaruratga aylanmoqda. Ana shu mezonlardan kelib chiqqan holda bir qator ekologik muammolar, chunonki, Orolning qurib borayotgani va Orolbo‘yining sahroga aylanayotgani, Navoiy, Xorazm, Farg‘ona viloyatlarida ekologik vaziyatning murakkabligi shuningdek, aholining toza ichimlik suvi bilan yetarli ta’minlanmaganligi chiqindilarning to‘planib qolishi, qayta tiklanadigan energiya manbalarining imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmayotgani va bular barchasining iqtisodiyga ta’sirini hal etib, fuqarolarda huquqiy bilim va huquqiy ongni kuchaytirish zarur. Chunki ularda huquqiy ongni o‘yg‘otmay turib, ya’ni o‘z burch va mas’uliyatlarini his ettirmasdan turib hech bir muammoga yechim topa olmaymiz. Buning uchun ularda tarbiya jarayonini yoshlikdan boshlash zarur.

Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish. [1] - Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, " Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish. -O‘rmon maydonlarini kengaytirish.

O‘zbekiston respublikasi prezidenti " 2019 - 2030 - yillar davrida mamlakat "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi qarorini qabul qildi, mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish bo‘yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Bu qarorga binoan quyidagilar asosiy amal qiladigan vazifalar hisoblanadi.

- Texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.- Davlat inavatsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga "Yashil makon" ni mezonlashtirish.- Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish.

"Yashil iqtisodiyot" sohasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Hozirgi kunda

davlatimiz rahbari tomonidan ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodni yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ishlari amalga oshirildi.

- Prezidentimizning 2023 - yil 8 - avgustdagi qarori asosida yurtimizda Jahon banki ko‘magida " Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash" loyihasi amalga oshirilayapti.

- 2025 - yil " Atrof - muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot yili” munosabati bilan “yashil makon” umummilliy loyihasi ishlab chiqilgan. Ushbu loyiha doirasida mamlakatimizda har yili 200 million tup daraxt va buta ekilib, yashillik miqyosini 2030 - yilgacha 30 % ga yetgazish maqsadi belgilangan.

Bosh Qomusimizning 49-moddasida ham insonning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida shunday deyiladi: “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora tadbirlar amalga oshiriladi”. [5]

Mening fikrimcha, O‘zbekistonimiz iqtisodiy barqaror rivojlanish uchun ekologiyani asrash maqsadida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “Ekologiya” darslarini joriy etishi zarur. Shunday buyuk islohotga erishmoqchi ekanmiz, demak buni yoshlardan boshlashimiz zarur. Bu haqda yuksak aql egasi Gyote shunday deydi: “Agar xalqda buyuk islohotga ehtiyoj haqiqatan ham paydo bo‘lgan bo‘lsa, Xudo ham uning tomonida bo‘ladi va muvaffaqiyat unga yor bo‘ladi.”

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan chora - tadbirlar davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar va qarorlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu hujjatlar atrof - muhitni muhofaza qilish tabiiy resurslarni asrash va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan tizimli yondashuvni shakllantirishga xizmat qilib, fuqarolarning huquq va burchlarini ham to‘g‘ri anglab olishga yordam beradi. Biz bularning barchasiga amal qilsak haqiqatdan ham davlatimiz uzoq yillar davomida rivojlanishdan to‘xtamaydi. [6]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022 - 2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 79 - maqsad.
2. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 80 - maqsad.
3. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 81- maqsad.
4. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy gazetasi 2024 - yil 30- noyabr 244 - soni.
5. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49 - moddadan.